

MAKTABGACHA TA'LIM – OYDIN KELAJAK SARI YO'L.

Raxmatullayeva Parizod Xolmamat qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridikfakulteti „Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo'yicha) talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bilamizki maktabgacha ta'lim muassasasi shuningdek, bolalar bog'chasi, boshlang 'ich mактаб yoki o 'yin maktabi sifatida ham tanilgan, bolalarga boshlang 'ich maktabda majburiy ta 'limni boshlashdan oldin erta bolalik davridagi ta 'limni taklif qiladigan ta 'lim muassasasi. U davlat yoki xususiy bo 'lishi mumkin va davlat mablag 'lari hisobidan subsidiyalanishi mumkin. Shuningdek hozirgi kunda maktabgacha ta 'lim sohasida ko 'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki har qanday sohada yuksalish asosan Maktabgacha ta 'limdan boshlanadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, davlat, ta'lim tarbiya, o'qish, axborot-kommunikatsiya, subsidiya, homiylik, bolalar bog'chasi, Ko

Barchamizga, ma'lumki yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan maktabgacha ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk etib voyaga yetkazish, ta'lim – tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) – bu uch yoshdan yeti yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash, o'qitish, nazoratqilish, parvarish qilish va sog'lomlashtirishni ta'minlaydigan ta'lim muassasasi turi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart – sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim mussasalarini sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim mussasalarini zamonaviy o'quv – metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagok va boshqa ruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'rida"gi PQ-3955 – sonli qaroriga muvofiq:

- Birinchidan O'zbekiston Respublikasi mabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasi 1-ilovaga muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda;
- Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ – huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- Maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogic va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- Maktabgacha ta'lim boshqaruv tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim mussasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- Maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- Maktabgacha ta'lim mussasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;
- Ikkinchidan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish koseptsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi";
- Uchinchidan 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;
- To'rtinchidan 2025-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

Konsepsiya bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan har yili 1-dekabrga qadar o'tayotgan yilning natijalarini o'rganib chiqish asosida keying yil uchun «Yo'l xaritasi» ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

Qishloq joylarda bir nechta ko'p qavatli turar joy uylari yoki uylar guruuhlaridan iborat yangi qurilayotgan majmualardagi maktabgacha ta'lim muassasasining eng kam quvvati 50 o'rindan kam bo'lmasligi belgilandi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev "qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib, biror bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Shunday kadrlarni millatning sog'lom genofondini tayyorlash avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi" deb ta'kidlaganlar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ulardagi ta'lim tizimini mustahkamlash, yangi maktabgacha ta'lim mussasalarini qurish bo'yicha Davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda.Ularda ta'lim sifatini yaxshilash hamda tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish, ta'lim xizmatlari turini ko'paytirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalg etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rinn tutadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari qurilmoqda va har bir maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagoglar bilan ta'minlanmoqda.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga homiylik shaklida xayriya faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari belgilandi. Ushbu turdag'i davlat-xususiy sheriklik shartnomasi kamida bir yil muddatga tuziladi va tanlangan MTTga muntazam ravishda xayriya yordamini ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasi katta sarmoyalarni talab etadi. Maktabgacha ta'lim vazirligi byudjet mablag'larini yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, eski binolarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, bolalarni o'yinchoqlar va o'quv materiallari bilan ta'minlash singari eng dolzarb masalalarni hal etishga yo'naltiradi. Biroq, barchasini birdaniga tuzatish uchun imkoniyatlar yetarli emas, shu sababdan biznes tomonidan qo'llab-quvvatlash biz uchun muhimdir. Soliq imtiyozlarning taqdim etilishi O'zbekistonda xayriya faoliyat uchun samarali rag'bat bo'ladi. Soliq imtiyozlaridan tashqari, xayriya kompaniyasi o'z xodimlarining farzandlarini homiylik qiladigan MTTga yo'naltirishda ustunlikka ega bo'ladi.

3-oktyabrdan boshlab davlat MTTga homiylik shaklida xayriya faoliyatini amalga oshiradigan xayriyachilar quyidagi soliq imtiyozlariga ega bo'ladilar:

- Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblashda xarajatlar chiqarib tashlanadi;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tekin berish QQS va YaSTga tortilmaydi;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tannarxidan past narxda sotishda amaldagi sotish narxidan kelib chiqqan holda QQS hisobga olinadi.

Xayriyachi xayr-ehson qilish maqsadi va tartibini o'zi belgilaydi. Homiylik ostidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti olingan mablag'larning hisobini yuritishi va xususiy sherikga pul va mulkdan maqsadli foydalanilishi to'g'risida muntazam ravishda hisobot yuritishi shart.

Ushbu qilinayotgan har bir ish Vatanimizning ertangi kuni gullab – yashnashi, xalqimizning faravon hayot kechirishi, yosh avlodni barkamol, sog'lom qilib tarbiyalash, ularning kelajakdagi barcha orzularini amalga oshirishi, o'z maqsadlariga erishishlari uchun ochilgan cheksiz imkoniyat eshidigidir. Zero, maktabgacha ta'lim – ertangi kunimizga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Maktabgacha ta'lim vazirligi
3. Ziyonet.uz